



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**08.00.05 – XIZMAT KO‘RSATISH TARMOQLARI IQTISODIYOTI
IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH
SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2026

Annotatsiya:

Dastur 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligiga kiruvchilar uchun “Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyoti”, “Buxgalteriya hisobi”, “Turizm: nazariya va amaliyot”, “Raqamli iqtisodiyot” va “Moliya va soliqlar” fanlari asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

Rabbimov M.M.	–	SamDU, Raqamli iqtisodiyot kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmanova D.K.	–	SamDU, Raqamli iqtisodiyot kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari nomzodi
Bakayev Z.T.	–	SamDU, Raqamli iqtisodiyot kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Dastur Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish institutining 2026-yil 26-avgustdagi 1-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasi iqtisodiy o'sishning yetakchi omillaridan biri, bandlikni ta'minlash, aholi farovonligini oshirish, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish hamda inson kapitalini rivojlantirishning muhim institutsional asosi sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamlashtirish, globallashtirish, urbanizatsiya, demografik tarkibning o'zgarishi, ekologik mas'uliyatning kuchayishi va iste'molchilar talabining individuallashtirish xizmatlarning mazmuni, shakli va ularni tashkil etish mexanizmlarini tubdan yangilamoqda. Natijada an'anaviy savdo, transport, aloqa, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm va maishiy xizmatlar bilan bir qatorda elektron platformalar, kreativ industriya, konsalting, autorsoring, logistika, fintech, elektron tijorat hamda bilimga asoslangan professional xizmatlar jadal rivojlanmoqda. Bu jarayon xizmat ko'rsatish tarmoqlarini alohida korxonalar faoliyati doirasidagina emas, balki tarmoqlararo aloqalar, hududiy rivojlanish, institutsional muhit va innovatsion ekotizim bilan uzviy bog'liq murakkab iqtisodiy tizim sifatida tadqiq etishni talab qiladi.

Xizmatning nomoddiyligi, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining ko'pincha bir vaqtda kechishi, sifat ko'rsatkichlarining subyektiv baholanishi, saqlab bo'lmazlik hamda iste'molchining xizmat yaratish jarayonida bevosita ishtirok etishi mazkur soha iqtisodiyotini o'rganishda o'ziga xos nazariy va uslubiy yondashuvlarni taqozo etadi. Xizmatlar bozorida talabning yuqori o'zgaruvchanligi, inson omilining ustuvorligi, axborot assimetriyasi va sifatni standartlashtirishdagi murakkabliklar samaradorlikni baholashning an'anaviy mezonlarini kengaytirishni talab qiladi. Shu bois xizmat ko'rsatish tarmoqlarida iqtisodiy natijadorlik bilan bir qatorda ijtimoiy samaradorlik, mijoz qoniqishi, xizmatdan foydalanish imkoniyati, hududiy qamrov, ekologik ta'sir, innovatsion faollik va raqamli inklyuzivlik ko'rsatkichlarini ham kompleks tahlil qilish zarur.

Mazkur vazifalarni hal etish iqtisodiy jarayonlarni shunchaki tavsiflash bilan cheklanmaydigan, balki sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlaydigan, ishonchli ma'lumotlar asosida gipotezalarni sinovdan o'tkazadigan, tarmoq va hududlar kesimida qiyosiy baholash imkonini beradigan zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Xizmatlar sohasida unumdorlik, bandlik, investitsiya, innovatsiya, talab, narx, sifat va rentabellik o'rtasidagi munosabatlarni ekonometrik modellash, prognozlash, panel ma'lumotlar tahlili, indeks usuli, klasterlash, so'rov va eksperiment natijalarini statistik qayta ishlash orqali o'rganish ilmiy xulosalarning ishonchliligini oshiradi. Shuningdek, raqamli platformalar va katta ma'lumotlar xizmatlar bozorining real vaqtga yaqin holatini baholash, iste'molchi xulq-atvorini tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan holda ishlab chiqish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlashning mazmuni va tashkiliy mexanizmlari ham ana shu yangi talablar asosida takomillashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil

26-maydagi “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-98-son Farmoni ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, tadqiqot natijadorligini kuchaytirish hamda attestatsiya jarayonlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etishning huquqiy asosini belgilaydi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-son qarori esa stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktorantura faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me’yoriy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu hujjatlar doktoranturaga qabulni ilmiy salohiyat, kasbiy tayyorgarlik va tadqiqotchilik kompetensiyalarini xolis baholash tamoyillari asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlashning mazmuni va tashkiliy mexanizmlari ham ana shu yangi talablar asosida takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-98-son Farmoni ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, tadqiqot natijadorligini kuchaytirish hamda attestatsiya jarayonlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etishning huquqiy asosini belgilaydi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-son qarori esa stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktorantura faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me’yoriy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu hujjatlar doktoranturaga qabulni ilmiy salohiyat, kasbiy tayyorgarlik va tadqiqotchilik kompetensiyalarini xolis baholash tamoyillari asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 11-avgustdagi 337-son buyrug‘i bilan 2027-yil uchun davlat budjeti mablag‘lari hisobidan stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul kvotalari tasdiqlangan. Buyruqda qabul kvotasining 60 foizini ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlariga oid ixtisosliklarga yo‘naltirish, qabul jarayonlarini Oliy ta’limdan keyingi ta’limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi orqali tashkil etish, talabgor hujjatlari va xorijiy til sertifikatlari haqqoniyligini tekshirish, imtihon yoki suhbatlarni video kuzatuv va onlayn translyatsiya ostida o‘tkazish kabi shaffoflik va sifatga qaratilgan talablar belgilangan. Shuningdek, 2027-yilda tayanch doktoranturaga qabul qilingan doktorantlar uchun birinchi o‘quv yilida sohaviy maxsus fanlar, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va akademik yozish, statistika hamda ma’lumotlar tahlili bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etilishi ko‘zda tutilgan. Bu talablar kirish sinovi dasturining mazmuni nazariy bilim bilan cheklanmasdan, da’vogarning metodologik savodxonligi, analitik fikrlashi va mustaqil ilmiy izlanishga tayyorligini ham baholashi lozimligini ko‘rsatadi.

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi xizmatlar

sohasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, tarmoqlar va korxonalar faoliyatining qonuniyatlari, xizmatlar bozorining shakllanishi va rivojlanishi, resurslardan foydalanish samaradorligi, raqobat, tadbirkorlik, investitsiya, innovatsiya hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini o'rganishga yo'naltiriladi. Ixtisoslik doirasida xizmatlarning iqtisodiy tabiati va tasnifi; xizmatlar bozorida talab va taklif; xizmat ko'rsatish korxonalarining asosiy fondlari va aylanma mablag'lari; mehnat resurslari, bandlik va mehnatga haq to'lash; tannarx, narx shakllanishi, daromad, foyda va rentabellik; marketing, menejment va sifat boshqaruvi; investitsion va innovatsion faoliyat; raqamlashtirish; hududiy xizmatlar bozori; turizm va mehmondo'stlik; moliya, soliqqa tortish, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit kabi o'zaro bog'liq yo'nalishlar kompleks tadqiq etiladi.

Dastur mazmuni "Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti", "Buxgalteriya hisobi", "Turizm: nazariya va amaliyot", "Iqtisodiy tahlil va audit", "Moliya va soliqlar" fanlarining asosiy nazariy-uslubiy masalalarini o'zaro uyg'unlashtirish asosida shakllantiriladi. "Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti" bloki tarmoqning iqtisodiy mohiyati, bozor mexanizmi, korxona resurslari, samaradorlik, narx, xarajat, daromad va raqobat masalalarini qamrab oladi. "Buxgalteriya hisobi" hamda "Iqtisodiy tahlil va audit" fanlari xizmat ko'rsatish subyektlarining moliyaviy holati va xo'jalik operatsiyalarini ishonchli aks ettirish, hisobot ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ichki nazorat va audit dalillarini baholash kompetensiyalarini aniqlashga xizmat qiladi. "Moliya va soliqlar" bloki moliyaviy resurslarni shakllantirish va taqsimlash, investitsion qarorlar, soliqqa tortishning iqtisodiy ta'siri va davlat moliyaviy siyosatining xizmatlar rivojiga ta'sirini o'rganishni nazarda tutadi. "Turizm: nazariya va amaliyot" fani esa xizmatlar tizimining yirik va multiplikativ tarmog'i sifatida turizm bozori, destinatsiya, mehmondo'stlik, turistik resurslardan foydalanish, xizmat sifati va barqaror turizm masalalarini qamrab oladi.

Mazkur dastur va baholash mezonlari 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi da'vogarlarining kasbiy va ilmiy tayyorgarligini kompleks baholashga xizmat qiladi. Dasturda nazariy bilim, amaliy tahlil, tadqiqot metodologiyasi va akademik madaniyatning o'zaro birligi ta'minlanishi ko'zda tutiladi. Uning izchil qo'llanishi xizmat ko'rsatish tarmoqlarining dolzarb muammolarini chuqur anglaydigan, ishonchli ma'lumotlar bilan ishlay oladigan, xalqaro ilmiy muloqotga kirisha oladigan hamda mamlakat va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga amaliy hissa qo'shadigan yangi avlod tadqiqotchilarini saralash uchun mustahkam metodik asos yaratadi.

Dastur quyida keltiriladigan fanlar bo'yicha mavzular, savollar majmui va baholash mezonlari orqali mazkur maqsad hamda vazifalarni ro'yobga chiqaradi.

Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti fani bo'yicha:

Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti fanining predmeti, obyekti, maqsadi, vazifalari va nazariy-uslubiy asoslari. Xizmatlarning iqtisodiy mohiyati, xususiyatlari, tasnifi hamda milliy iqtisodiyotdagi o'рни. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari. Xizmatlar sohasining aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish, turmush sifati va hududlar iqtisodiy barqarorligini yuksaltirishdagi ahamiyati. O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning shakllari, usullari va vositalari. Davlat-xususiy sheriklik asosida xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlari. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishga oid davlat dasturlari, strategiyalar, konsepsiyalar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning iqtisodiy mazmuni.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish modellari, shakllari va o'ziga xos xususiyatlari. Xizmatlar sohasini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari va uning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish tizimidagi o'рни. Xizmatlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi. Xizmatlar bozori, uning tarkibi, subyektlari, infratuzilmasi hamda rivojlanish tendensiyalari. Xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning mazmuni, zarurati va amalga oshirish mexanizmlari. Xizmatlar tarkibini diversifikatsiyalash, yangi xizmat turlarini joriy etish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi xizmatlarni rivojlantirish yo'llari. Xizmat ko'rsatish jarayonlarini texnik va texnologik yangilash, biznes jarayonlarini optimallashtirish hamda boshqaruv tizimlarini takomillashtirish masalalari. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarning iqtisodiy mohiyati, turlari va o'ziga xos xususiyatlari. Xizmat innovatsiyalari, texnologik, tashkiliy, marketing va boshqaruv innovatsiyalarini joriy etish mexanizmlari. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish, rag'batlantirish va uning natijadorligini baholash usullari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron xizmatlar, platforma biznesi, mobil ilovalar, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va avtomatlashtirilgan xizmat ko'rsatish tizimlarining rivojlanishi.

Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik tushunchalari. Samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularning tasnifi va hisoblash usullari. Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat unumdorligi, fond qaytimi, resurs sig'imi, xarajatlar samaradorligi, daromad, foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlash. Xizmat sifati, mijozlar qoniqishi, xizmat ko'rsatish tezligi, foydalanish imkoniyati va ijtimoiy natijadorlikni baholash usullari. Xizmat ko'rsatish korxonalarida sinergetik samaraning mohiyati, shakllanish omillari va undan foydalanish imkoniyatlari. Tarmoqlararo integratsiya, kooperatsiya va hamkorlik asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari. Xizmat ko'rsatish sohasida

klaster yondashuvining mazmuni, tamoyillari va afzalliklari. Hududiy xizmatlar klasterlarini shakllantirish, ularning ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar va klasterlar faoliyati samaradorligini baholash.

Xizmat ko'rsatish sohasida raqobat va biznes muhiti, ularning soha rivojlanishidagi o'рни. Xizmatlar bozorida mukammal va nomukammal raqobat shakllari. Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligi, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar hamda baholash usullari. Raqobat ustunligini shakllantirish, iste'molchilar talabini o'rganish, xizmat sifatini oshirish va bozor segmentlarini egallash strategiyalari. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi o'рни.

Aholiga ko'rsatiladigan pulli xizmatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi, tasnifi va hisobini yuritish tartibi. Pulli xizmatlar hajmi, tarkibi va rivojlanish dinamikasini statistik baholash. Aholiga ko'rsatiladigan uy-joy, kommunal va maishiy xizmatlarning mazmuni, turlari, tariflarini shakllantirish hamda ularni hisobga olish tartibi. Kommunal xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari. Yo'lovchi tashish va transport xizmatlarining iqtisodiy ahamiyati, tasnifi, tashkil etilishi va hisobini yuritish usullari. Transport-logistika xizmatlari bozori, transport infratuzilmasi va multimodal tashuvlarni rivojlantirish masalalari. Transport xizmatlarining hududiy iqtisodiy rivojlanish, aholi harakatchanligi va boshqa xizmat tarmoqlari faoliyatiga ta'siri. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining mazmuni, turlari hamda rivojlanish xususiyatlari.

Ta'lim xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, turlari va inson kapitalini rivojlantirishdagi o'рни. Ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi, davlat va nodavlat ta'lim xizmatlarini moliyalashtirish hamda ularning sifatini baholash. Ta'lim xizmatlari hajmi va natijadorligini hisobga olish usullari. Madaniy, maishiy, turizm va ekskursiya xizmatlarining turlari, iqtisodiy mazmuni va ularni hisobga olish tartibi. Turizm va mehmondo'stlik xizmatlari bozorining tarkibi, turistik mahsulotni shakllantirish, joylashtirish, ovqatlanish, transport va ekskursiya xizmatlarining o'zaro bog'liqligi. Turistik xizmatlar sifati, raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini baholash. Turizm resurslaridan oqilona foydalanish va barqaror turizmni rivojlantirish masalalari. Sog'liqni saqlash, tibbiy, sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport xizmatlarining turlari, iqtisodiy mazmuni hamda ularni hisobga olish tartibi. Tibbiy xizmatlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish, davlat va xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatini moliyalashtirish hamda xizmatlar sifatini baholash. Sog'lomlashtirish va sport xizmatlarining inson kapitali, mehnat unumdorligi va aholi turmush sifatini oshirishdagi ahamiyati.

Turizm: nazariya va amaliyot fani bo'yicha:

“Turizm: nazariya va amaliyot” fanining predmeti, obyekti, maqsadi, vazifalari hamda nazariy-uslubiy asoslari. Turizmning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va funksiyalari. Turizmning hududiy rivojlanish, aholi bandligi, daromadlar, investitsiyalar, xizmatlar eksporti va mamlakat imijini yuksaltirishga ta’siri. Turizmning boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘liqligi va multiplikativ samarasi. Jahon va xalqaro turizm bozorining rivojlanish tendensiyalari. Xalqaro turistik oqimlar, turizm daromadlari va xarajatlari, turistik talab va taklifning shakllanish xususiyatlari. Globallashtirish, raqamlashtirish, demografik o‘zgarishlar, ekologik omillar, xavfsizlik va geosiyosiy jarayonlarning xalqaro turizm bozoriga ta’siri. Turizm bozoridagi zamonaviy biznes modellari, onlayn bronlashtirish tizimlari va raqamli platformalar. Sayohatchi, tashrif buyuruvchi, turist va ekskursant tushunchalarining mazmuni hamda o‘zaro farqlari. Ichki, kiruvchi va chiquvchi turizm tushunchalari. Turistlarning safar maqsadi, davomiyligi, yoshi, daromadi, harakatlanish usuli va hududiy yo‘nalishi bo‘yicha tasniflanishi. Turistik ehtiyoj, motivatsiya va turist xulq-atvoriga ta’sir etuvchi omillar.

Turizm sohasining tasnifi, shakllari va turlari. Madaniy-tarixiy, ziyorat, ekologik, qishloq, gastronomik, tibbiy, sog‘lomlashtirish, sport, ekstremal, ishbilarmonlik, ta’lim, ilmiy, etnografik, rekreatsion va boshqa turizm turlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Ommaviy va muqobil turizm, yakka va guruhli sayohatlar hamda mavsumiy turizmning iqtisodiy jihatlari. Turizm resurslarining mohiyati, tarkibi va tasnifi. Tabiiy, tarixiy-madaniy, arxeologik, me’moriy, diniy, etnografik, rekreatsion va ijtimoiy-iqtisodiy turizm resurslari. Turizm resurslarining jozibadorligi, sig‘imi, foydalanish darajasi va iqtisodiy qiymatini baholash usullari. Turizm resurslaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va barqaror boshqarish mexanizmlari.

O‘zbekistondagi tarixiy shaharlarning turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent, Qo‘qon, Termiz va boshqa turistik markazlarning tarixiy-madaniy salohiyati. Moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlaridan turistik maqsadlarda foydalanish. Tarixiy shaharlarning turistik jozibadorligi, xalqaro imiji va raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari. Turistik destinatsiya tushunchasi, uning tarkibiy elementlari va rivojlanish bosqichlari. Destinatsiyaning turistik salohiyati, brendi, imiji va raqobatbardoshligi. Turistik hududlarni rejalashtirish va boshqarish, destinatsiya menejmenti tashkilotlari faoliyati. Hududiy turistik klasterlar va turistik marshrutlarni shakllantirish mexanizmlari. Turizm sohasidagi xizmatlar va turistik mahsulotlarning iqtisodiy mazmuni. Turistik mahsulotning tarkibi, xususiyatlari va hayotiylik davri. Asosiy, qo‘shimcha va hamroh turistik xizmatlar. Turistik paketni shakllantirish, narxlash, bozorda joylashtirish va sotish mexanizmlari. Turistik

xizmatlar sifati, iste'mol qiymati va turistlar qoniqishini baholash usullari. Turoperatorlik va turagentlik faoliyatining mazmuni, vazifalari va o'zaro farqlari. Turistik xizmatlar paketini shakllantirish, hamkorlarni tanlash, shartnomalar tuzish va xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonlari. Turistik korxonalarda xizmat ko'rsatish texnologiyalari, mijozlar bilan ishlash va xavflarni boshqarish masalalari. Turizm sohasini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi, darajalari va funksiyalari. Turizm korxonalarida rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish va nazorat qilish jarayonlari. Turizmni boshqarishda davlat organlari, mahalliy hokimiyat, tadbirkorlik subyektlari, nodavlat tashkilotlar va mahalliy hamjamiyatlarning o'zaro hamkorligi.

Turizm marketingining mazmuni, tamoyillari va funksiyalari. Turizm bozorini o'rganish, segmentlash, maqsadli bozorni tanlash va turistik mahsulotni pozitsiyalash. Turistik talabni prognozlash, narx, sotish va kommunikatsiya siyosatini ishlab chiqish. Hududiy turistik brend, raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn savdo kanallaridan foydalanish. Xalqaro turizm tashkilotlarining turizmni rivojlantirishdagi o'рни. BMT Turizm tashkiloti, UNESCO va boshqa xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlarning vazifalari, dasturlari va tashabbuslari. O'zbekistonning xalqaro turizm tashkilotlari bilan hamkorligi va ushbu hamkorlikning milliy turizm rivojiga ta'siri. Turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish va tartibga solishning asosiy yo'nalishlari. Turizm siyosatini shakllantirish, strategik rejalashtirish, investitsiyalarni rag'batlantirish, infratuzilmani rivojlantirish, turistik hududlarni qo'llab-quvvatlash va xavfsizlikni ta'minlash. Turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va raqobat muhitini yaxshilash. O'zbekistonda ichki, kiruvchi va chiquvchi turizmni rivojlantirish istiqbollari. Xalqaro turistik oqimlarni ko'paytirish, yangi maqsadli bozorlarni o'zlashtirish, transport qulayligini oshirish va turistik xizmatlar eksportini kengaytirish yo'llari. O'zbekistonning turistik brendini rivojlantirish, xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish hamda turizm mavsumiyligini kamaytirish masalalari. Turizm faoliyatini litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirishning mazmuni hamda vazifalari. Turistik xizmatlarga qo'yiladigan sifat va xavfsizlik talablari. Joylashtirish vositalari, turoperatorlik, gidlik va boshqa turistik xizmatlarni muvofiqlik jihatidan baholash. Milliy va xalqaro standartlarni turizm korxonalari faoliyatiga joriy etish. Turizm sohasidagi xalqaro huquqiy va me'yoriy hujjatlar. Turistlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, sayohat xavfsizligi, sug'urta, chegaralararo harakatlanish va turistik xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq xalqaro tamoyillar. Turizm sohasidagi milliy qonunchilik, davlat dasturlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmuni hamda ularni amaliyotda qo'llash masalalari.

Raqamli iqtisodiyot fani bo'yicha fani bo'yicha:

Raqamli iqtisodiyot tushunchasining kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari va nazariy asoslari. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy tendensiyalari. Axborotlashgan jamiyat, bilimlar iqtisodiyoti, internet iqtisodiyoti, platforma iqtisodiyoti va ma'lumotlarga asoslangan iqtisodiyot tushunchalarining mazmuni hamda o'zaro bog'liqligi. Raqamli transformatsiyaning global iqtisodiy tizim, xalqaro mehnat taqsimoti va jahon bozorlariga ta'siri. An'anaviy iqtisodiyotdan raqamli iqtisodiyotga o'tishning obyektiv zarurati, asosiy bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari. An'anaviy va raqamli iqtisodiy tizimlarda resurslar, ishlab chiqarish omillari, tranzaksiya xarajatlari, qiymat yaratish zanjiri va iste'molchi xulq-atvorining farqli jihatlar. Raqamli transformatsiya sharoitida ma'lumotlarning strategik iqtisodiy resursga aylanishi. Tarmoq samarasi, miqyos samarasi, nolga yaqin chegaraviy xarajatlar va raqamli mahsulotlarning boshqa iqtisodiy xususiyatlari.

Raqamli iqtisodiyot fanining predmeti, obyekti, maqsadi, vazifalari va tadqiqot yo'nalishlari. Raqamli texnologiyalar ta'sirida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar, raqamli bozorlar va platformalarning faoliyat qonuniyatlari. Raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish, aholi bandligi, daromadlar va turmush sifatini oshirishdagi o'rni. Raqamli inklyuziya va hududlar o'rtasidagi raqamli tafovut masalalari. Raqamli iqtisodiyotni tadqiq etishda qo'llaniladigan ilmiy usullar. Statistik va ekonometrik tahlil, iqtisodiy-matematik modellash, prognozlash, indeks va reyting usullari, panel ma'lumotlar tahlili, tarmoq tahlili, mashinaviy o'qitish va algoritmik modellash imkoniyatlari. Katta ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, vizuallashtirish va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ulardan foydalanish. Raqamli ma'lumotlarning ishonchiligi, reprezentativligi va sifatini baholash.

Sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish texnologiyalarining iqtisodiy mazmuni. Ekspert tizimlari, tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuter ko'rishi, generativ sun'iy intellekt va tavsiya algoritmlaridan foydalanish yo'nalishlari. Sun'iy intellekt asosida talabni prognozlash, narx belgilash, mijozlarga xizmat ko'rsatish, firibgarlikni aniqlash, kredit risklarini baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Algoritmik boshqaruvning iqtisodiy samarasi va ehtimoliy xavflari.

Blokcheyn va taqsimlangan reyestr texnologiyalarining ishlash tamoyillari, iqtisodiy mohiyati va amaliy qo'llanish yo'nalishlari. Markazlashgan va markazlashmagan tizimlarning farqlari. Konsensus mexanizmlari, smart-kontraktlar, tokenlashtirish va raqamli aktivlar tushunchalari. Blokcheyn texnologiyalaridan moliya, logistika, davlat boshqaruvi, turizm, sog'liqni saqlash va ta'minot zanjirlarida foydalanish imkoniyatlari.

Raqamli infratuzilmaning mazmuni, tarkibiy qismlari va iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni. Keng polosali internet, mobil aloqa, ma'lumotlarni qayta

ishlash markazlari, bulutli infratuzilma, raqamli identifikatsiya, geoinformatsion va platforma tizimlari. Raqamli infratuzilmani rivojlantirishda davlat, xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish. Raqamli xizmatlar bozorining mazmuni, tarkibi va rivojlanish qonuniyatlari. Elektron xizmatlar, mobil xizmatlar, onlayn platformalar, agregatorlar va ekotizimlarning faoliyat mexanizmlari. Ikki va ko'p tomonlama bozorlar, tarmoq samarasi va platformalar o'rtasidagi raqobat. Raqamli monopoliyalar, ma'lumotlar ustidan nazorat, algoritmik narx belgilash va raqobat muhitini tartibga solish masalalari.

Elektron hukumatning mohiyati, shakllanish bosqichlari va rivojlanish modellari. Davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari va fuqarolar o'rtasidagi elektron munosabatlar. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish, "yagona darcha" tamoyili, ochiq ma'lumotlar, idoralararo integratsiya va raqamli identifikatsiya tizimlari. Elektron hukumatning shaffoflikni ta'minlash, korrupsion xavflarni kamaytirish, ma'muriy xarajatlarni qisqartirish va davlat xizmatlari sifatini oshirishdagi ahamiyati.

Elektron tijoratning iqtisodiy mazmuni, shakllari va rivojlanish xususiyatlari. Biznesdan biznesga, biznesdan iste'molchiga, iste'molchidan iste'molchiga va davlat bilan biznes o'rtasidagi elektron savdo modellari. Elektron savdoda marketplace, mobil tijorat, ijtimoiy tijorat, dropshipping va obuna asosidagi modellar. Elektron savdoda narx belgilash, logistika, raqamli marketing, to'lovlar va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish. Raqamli biznes modellarining turlari va qiymat yaratish mexanizmlari. Platforma, freemium, obuna, reklama, tranzaksiya, sharing economy va "xizmat sifatida" taqdim etish modellari. Raqamli korxonalar va ekotizimlarning tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari. Raqamli biznesda mijoz tajribasi, shaxsiylashtirish, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv va tezkor innovatsiyalar.

Startup tushunchasi, startaplarning rivojlanish bosqichlari va biznes modelini shakllantirish tamoyillari. Startup ekotizimining asosiy ishtirokchilari: tashabbuskorlar, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar, venchur fondlari, investorlar, universitetlar va davlat institutlari. Startaplarni moliyalashtirish manbalari, venchur kapitali, kraudfanding, biznes farishtalar va grant mexanizmlari. Startup loyihalarining innovatsion salohiyati va iqtisodiy samaradorligini baholash. Sanoatda raqamli texnologiyalarni qo'llash va "Sanoat 4.0" konsepsiyasi. Aqlli ishlab chiqarish, robotlashtirish, raqamli egizaklar, sensorlar, avtomatlashtirilgan boshqaruv va prognozli texnik xizmat ko'rsatish. Raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot sifati, mehnat unumdorligi va resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'siri.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslari. Raqamlashtirishga oid qonunlar, Prezident farmonlari va

qarorlari, Hukumat qarorlari, davlat dasturlari hamda tarmoq strategiyalarining iqtisodiy mazmuni. Raqamli transformatsiya jarayonida davlat organlari, mahalliy hokimliklar, xususiy sektor, ilmiy va ta'lim tashkilotlarining vazifalari. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining maqsadi, vazifalari va ustuvor yo'nalishlari. Hududlar va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish, elektron hukumatni rivojlantirish, raqamli sanoatni kengaytirish, AKT infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda raqamli ko'nikmalarni oshirish masalalari. Strategiya doirasidagi loyihalar samaradorligini baholash va monitoring qilish mexanizmlari.

Raqamli ko'nikmalar, raqamli savodxonlik va inson kapitalining raqamli iqtisodiyotdagi o'rni. Masofaviy va platforma asosidagi mehnat, gig iqtisodiyoti hamda yangi kasblarning shakllanishi. Avtomatlashtirish natijasida ish o'rinlarining transformatsiyasi. Xodimlarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish. Elektron bank xizmatlari va raqamli bankingning mazmuni. Masofaviy bank xizmatlari, mobil banking, internet banking, raqamli banklar va ochiq banking modellari. Raqamli bank xizmatlarining qulayligi, tezligi, xarajatlari va moliyaviy inklyuziyaga ta'siri. Bank faoliyatida sun'iy intellekt, biometrik identifikatsiya va katta ma'lumotlardan foydalanish. Fintech tushunchasi, moliyaviy texnologiyalarning turlari va iqtisodiy ahamiyati. Raqamli to'lovlar, elektron hamyonlar, mobil to'lov tizimlari, kraudfanding, raqamli kreditlash, insurtech va regtech yo'nalishlari. Fintech kompaniyalari va an'anaviy moliya institutlari o'rtasidagi raqobat hamda hamkorlik. Moliyaviy texnologiyalarni iqtisodiyotga integratsiyalashning imkoniyatlari va xavflari.

Kriptoaktivlar, kriptovalyutalar va markaziy banklarning raqamli valyutalari tushunchalari. Ularning iqtisodiy tabiati, ishlash mexanizmlari va an'anaviy pul tizimidan farqli jihatlari. Kriptoaktivlar bozoridagi o'zgaruvchanlik, moliyaviy barqarorlik, soliqqa tortish, noqonuniy operatsiyalar va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalari. Raqamli infratuzilma, elektron hukumat, ta'lim, sog'liqni saqlash va transport loyihalariga xususiy investitsiyalarni jalb etish. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xarajatlar, manfaatlar va xavflarni tomonlar o'rtasida taqsimlash. Innovatsion klasterlar, texnoparklar, IT-parklar va raqamli innovatsiya markazlarining iqtisodiy mazmuni. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi. Texnopark rezidentlarini qo'llab-quvvatlash, innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish va texnologik tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlari. Raqamli xizmatlar eksportini kengaytirishda IT-kompaniyalarning o'rni. Istiqbolli texnologiyalar samaradorligini baholash, ularning xavflarini boshqarish hamda inson manfaatlariga yo'naltirilgan raqamli rivojlanishni ta'minlash masalalari.

Buxgalteriya hisobi fani bo'yicha fani bo'yicha:

Buxgalteriya hisobining iqtisodiy mohiyati, predmeti, obykti, maqsadi va vazifalari. Buxgalteriya hisobining xo'jalik hisobi tizimidagi o'rni. Operativ, statistik va buxgalteriya hisobining o'zaro bog'liqligi hamda farqli jihatlari. Buxgalteriya hisobining axborot, nazorat, tahliliy va boshqaruv funksiyalari. Buxgalteriya hisobi axborotidan foydalanuvchilar va ularning iqtisodiy manfaatlari. Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari. Uzluksizlik, hisoblash, ehtiyotkorlik, mazmunning shakldan ustunligi, izchillik, haqqoniylik, xolislik, qiyoslanuvchanlik va o'z vaqtida taqdim etish tamoyillari. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisob yuritish xususiyatlari.

Buxgalteriya hisobining usullari va ularning o'zaro bog'liqligi. Hujjatlashtirish, inventarizatsiya, baholash, kalkulyatsiya, buxgalteriya schyotlari, ikki yoqlama yozuv, buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobot tushunchalari. Xo'jalik operatsiyalarini dastlabki hujjatlarda aks ettirish, guruhlash, umumlashtirish va nazorat qilish jarayonlari. Buxgalteriya balansining mohiyati, mazmuni, tuzilishi va iqtisodiy ahamiyati. Aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital tushunchalari. Balans moddalari va bo'limlari. Xo'jalik operatsiyalari ta'sirida balansda yuz beradigan o'zgarishlarning turlari. Boshlang'ich, joriy, yakuniy, birlashtirilgan va tugatish balanslarini tuzish xususiyatlari. Buxgalteriya schyotlarining iqtisodiy mazmuni, tuzilishi va tasnifi. Aktiv, passiv, kontraktiv, kontrapassiv va tranzit schyotlarning xususiyatlari. Sintetik va analitik hisobning mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi. Schyotlar rejasi va undan foydalanish tartibi. Aylanma qaydnomalarni tuzish va ulardan nazorat vositasi sifatida foydalanish. Ikki yoqlama yozuvning mohiyati, zarurati va nazorat ahamiyati. Schyotlar korrespondensiyasi va buxgalteriya provodkalarini tuzish tartibi. Oddiy va murakkab buxgalteriya yozuvlari. Xo'jalik operatsiyalarini iqtisodiy mazmuniga ko'ra schyotlarda aks ettirish. Sintetik va analitik hisob ma'lumotlarining o'zaro muvofiqligini tekshirish.

Buxgalteriya hisobida hujjatlashtirish va hujjatlar aylanishini tashkil etish. Dastlabki hujjatlarning majburiy rekvizitlari, ularni tuzish, qabul qilish, tekshirish va saqlash tartibi. Elektron hujjatlar va elektron raqamli imzodan foydalanish. Buxgalteriya hujjatlarini shakliy, mazmuniy va arifmetik tekshirish usullari. Inventarizatsiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari va turlari. Aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o'tkazish tartibi. Inventarizatsiya natijasida aniqlangan kamomad, ortiqcha va qiymat farqlarini hisobda aks ettirish. Inventarizatsiyaning aktivlar saqlanishini ta'minlash va moliyaviy hisobot ishonchliligini oshirishdagi ahamiyati. Buxgalteriya hisobida baholash va kalkulyatsiyaning mazmuni. Aktivlar va majburiyatlarni boshlang'ich, joriy, tiklash, qoldiq va haqqoniy qiymatda baholash. Xorijiy valyutadagi aktiv va

majburiyatlarni qayta baholash. Xizmatlar tannarxini kalkulyatsiya qilishning maqsadi, obyektlari, birliklari va usullari. Pul mablagʻlari va pul ekvivalentlari hisobining vazifalari. Kassadagi pul mablagʻlari, bank hisobvaraqlari, yoʻldagi pul mablagʻlari va qisqa muddatli yuqori likvidli investitsiyalar hisobi. Kassa va bank operatsiyalarini hujjatlashtirish, hisobda aks ettirish va nazorat qilish. Naqd pulsiz, elektron va mobil toʻlov operatsiyalarining buxgalteriya hisobi. Hisob-kitob operatsiyalarining mazmuni va turlari. Xaridorlar va buyurtmachilar, yetkazib beruvchilar va pudratchilar, hisobdor shaxslar, taʼsischilar, xodimlar hamda boshqa debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar hisobi. Debitor va kreditor qarzlarni tan olish, baholash, tasniflash va hisobdan chiqarish. Shubhali qarzar boʻyicha rezerv shakllantirish tartibi. Asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati, tasnifi, tan olinishi va boshlangʻich qiymatini shakllantirish. Asosiy vositalarning kirimi, ichki harakati va chiqimini hisobga olish. Amortizatsiya hisoblashning toʻgʻri chiziqli, ishlab chiqarish va tezlashtirilgan usullari. Asosiy vositalarni taʼmirlash, modernizatsiya qilish, qayta baholash va qadrsizlanishini hisobga olish. Ijaraga olingan va ijaraga berilgan asosiy vositalar hisobi. Operatsion va moliyaviy ijara munosabatlarining iqtisodiy mazmuni. Ijara aktivlari va majburiyatlarini tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotda aks ettirish. Xizmat koʻrsatish korxonalarida bino, inshoot, transport vositalari va jihozlar ijarasi hisobining xususiyatlari.

Nomoddiy aktivlarning mohiyati, tasnifi va tan olish mezonlari. Dasturiy taʼminot, litsenziya, patent, mualliflik huquqi, savdo belgisi, franchayzing va boshqa nomoddiy aktivlar hisobi. Nomoddiy aktivlarning boshlangʻich qiymatini shakllantirish, amortizatsiyasi, qadrsizlanishi va hisobdan chiqarilishi. Raqamli mahsulotlar va intellektual mulk obyektlarini hisobga olish xususiyatlari. Tovar-moddiy zaxiralarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va tasnifi. Xomashyo, materiallar, yoqilgʻi, ehtiyot qismlar, inventar, xoʻjalik jihozlari va boshqa zaxiralar hisobi. Zaxiralarni sotib olish, saqlash, ishlab chiqarishga berish va hisobdan chiqarish tartibi. Zaxiralarni oʻrtacha tortilgan qiymat va FIFO usullari asosida baholash. Zaxiralar qadrsizlanishini hisobga olish. Mehnat va unga haq toʻlash hisobining maqsadi hamda vazifalari. Xodimlar tarkibi, ish vaqti va bajarilgan ish hajmini hisobga olish. Ishbay, vaqtbay va boshqa mehnatga haq toʻlash shakllari. Asosiy va qoʻshimcha ish haqi, mukofotlar, ustamalar, taʼtil haqi va vaqtincha mehnatga layoqatsizlik boʻyicha toʻlovlarni hisoblash. Ish haqidan ushlab qolinadigan soliqlar va boshqa ajratmalar hisobi. Ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish xarajatlarining iqtisodiy mazmuni, tarkibi va tasnifi. Xarajatlarni iqtisodiy elementlar, kalkulyatsiya moddalari, yuzaga kelish joylari, javobgarlik markazlari va xizmat turlari boʻyicha guruhlash. Bevosita va bilvosita, doimiy va oʻzgaruvchan, ishlab chiqarish va davr xarajatlari hisobi.

Moliya va soliqlar fani boʻyicha fani boʻyicha:

Moliya tushunchasining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari va obyektiv zarurati. Davlatning shakllanishi, uning funksiyalari kengayishi va moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojning ortishi. Tovar-pul, taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlarining moliya tizimi shakllanishidagi o'rni. Moliyaning tarixiy va iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatlari. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari va takror ishlab chiqarish jarayonidagi roli. Moliyaviy munosabatlarning jamiyat iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va funksiyalari bilan bog'liqligi. Yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni taqsimlash hamda qayta taqsimlashda moliyaning ahamiyati. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar. Moliya va moliyaviy munosabatlarning o'ziga xos belgilari. Moliyaviy munosabatlarning pulli, taqsimlovchi, fondli va maqsadli xususiyatlari. Davlat, xo'jalik yurituvchi subyektlar, uy xo'jaliklari va moliya institutlari o'rtasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar. Moliya yordamida ifodalanadigan pul munosabatlarining tarkibi va chegaralari. Moliyaning taqsimlash, nazorat, tartibga solish va rag'batlantirish funksiyalari. Birlamchi va ikkilamchi taqsimlash jarayonlarining mazmuni. Moliyaviy nazorat orqali pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonlarini kuzatish. Moliyaning alohida funksiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ularning iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi ahamiyati.

Zamonaviy iqtisodiyot va davlat moliyasining o'zaro aloqasi. Davlat moliyasining iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy barqarorlik, bandlik, daromadlarni qayta taqsimlash va aholini ijtimoiy himoya qilishdagi o'rni. Moliyaviy siyosatning iqtisodiy sikllarni tartibga solishdagi ahamiyati. Davlat xarajatlari va soliqlarning yalpi talab, investitsiyalar va iqtisodiy faollikka ta'siri. Moliya va ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik. Moliyaviy resurslarning asosiy kapitalni yangilash, innovatsiyalarni moliyalashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va infratuzilmani modernizatsiya qilishdagi o'rni. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Moliya, kredit, narx, ish haqi va sug'urta iqtisodiy kategoriyalarining mazmuni hamda o'zaro bog'liqligi. Ularning qiymatni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonidagi o'rni. Moliya bilan kredit o'rtasidagi qaytarlilik, muddatlilik va to'lovlilik jihatidan farqlar. Moliya va ish haqining daromadlarni taqsimlashdagi vazifalari. Moliya va soliqlarning umumiy hamda farqli jihatlari. Moliyaviy resurslarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va shakllanish manbalari. Davlat, xo'jalik yurituvchi subyektlar va uy xo'jaliklarining moliyaviy resurslari. Ichki va tashqi moliyalashtirish manbalari. O'z mablag'lari, qarz mablag'lari va jalb qilingan mablag'larning iqtisodiy tavsifi. Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari.

Moliya tizimining iqtisodiy mohiyati, tarkibi va tuzilish tamoyillari. Moliya

tizimining soha va bo'g'inlari. Davlat moliyasi, mahalliy moliya, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi, uy xo'jaliklari moliyasi, sug'urta va moliya bozori. Moliya tizimining har bir bo'g'iniga xos pul fondlari, daromadlarni shakllantirish hamda ulardan foydalanish shakllari va usullari. Davlat moliyasining mazmuni va tarkibiy tuzilishi. Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari, davlat krediti va davlat korxonalari moliyasi. Davlat moliyasining iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari. Davlat moliyaviy resurslarini safarbar etish, taqsimlash va ulardan foydalanish tamoyillari. Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, funksiyalari va ahamiyati. Budjetning daromadlari va xarajatlari, ularning tarkibi hamda tasnifi. Budjet tizimi va uning tamoyillari. Respublika budjeti, mahalliy budjetlar va davlat maqsadli jamg'armalari o'rtasidagi munosabatlar. Budjet jarayonining bosqichlari va ishtirokchilari. Budjet daromadlarini shakllantirish manbalari. Solikli va soliqsiz daromadlar, davlat aktivlarini joylashtirish va boshqa tushumlar. Budjet daromadlarini prognozlashtirish usullari. Soliq salohiyati va soliq tushumlariga ta'sir etuvchi omillar. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni. Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy mazmuni va tasnifi. Ijtimoiy soha, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, mudofaa va boshqa yo'nalishlarga ajratiladigan mablag'lar. Joriy va kapital xarajatlar. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish va dasturiy budjetlashtirish tamoyillari. Budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini baholash. Budjet taqchilligi va profitsitining iqtisodiy mohiyati. Budjet taqchilligining kelib chiqish sabablari, turlari va moliyalashtirish manbalari. Budjet taqchilligining iqtisodiy o'sish, inflyatsiya va davlat qarziga ta'siri. Fiskal barqarorlik va budjet intizomini ta'minlash yo'llari.

Davlat krediti va davlat qarzining mazmuni. Ichki va tashqi davlat qarzi, davlat kafolatlari va qarz majburiyatlari. Davlat qarzini boshqarishning maqsadi, tamoyillari va usullari. Davlat qarzining barqarorligini baholash ko'rsatkichlari. Qarz mablag'laridan investitsion va infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishda foydalanish. Budjetlararo munosabatlarning mazmuni va tashkil etish tamoyillari. Respublika va mahalliy budjetlar o'rtasida daromadlar hamda xarajat vakolatlarini taqsimlash. Budjet transfertlari, dotatsiya, subvensiya va budjet ssudalari. Hududlarning moliyaviy mustaqilligi va mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash masalalari. Mahalliy moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Mahalliy budjetlarning daromadlari, xarajatlari va hududiy rivojlanishdagi o'rni. Mahalliy infratuzilma, kommunal xizmatlar, obodonlashtirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa xizmatlarni moliyalashtirish. Hududlarning moliyaviy salohiyatini baholash. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati, obyektiv zarurati va tarixiy rivojlanishi. Soliqlarning davlat moliyaviy resurslarini shakllantirishdagi o'rni. Soliqlarning majburiylik, qaytarib berilmaslik, individuallashtirilmaganlik va

qonuniylik xususiyatlari. Soliq, yig'im va boshqa majburiy to'lovlarning o'zaro farqlari. Soliqlarning fiskal, tartibga solish, rag'batlantirish, qayta taqsimlash va nazorat funksiyalari. Soliqlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati. Soliqlar orqali iqtisodiy faollik, investitsiyalar, iste'mol, jamg'arish va tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari. Soliqqa tortishning asosiy tamoyillari. Majburiylik, aniqlik, adolatlilik, yagonalik, oshkoralik, soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi va soliq tizimining barqarorligi. Soliqqa tortishning klassik va zamonaviy tamoyillari. Soliq yukini adolatli taqsimlash masalalari.

Soliq elementlarining mazmuni. Soliq to'lovchi, soliq solish obyekti, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliq davri, soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi. Soliq imtiyozlari, soliq chegirmalari va preferensiyalar. Soliq majburiyatining yuzaga kelishi, bajarilishi va tugatilishi. Soliqlarning tasnifi. To'g'ri va egri soliqlar, umumdavlat va mahalliy soliqlar, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar. Daromad, iste'mol, mol-mulk va resurslarga solinadigan soliqlar. Proporsional, progressiv va regressiv soliq stavkalari. Soliq tizimining iqtisodiy mohiyati, tarkibi va shakllanish tamoyillari. Soliq tizimining iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va budjet barqarorligiga ta'siri. Soliq tizimini soddalashtirish, soliq bazasini kengaytirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yo'llari. Soliq siyosatining mazmuni, maqsadi va yo'nalishlari. Soliq strategiyasi va soliq taktikasi. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi soliq siyosati. Soliq stavkalari, imtiyozlar va ma'muriy mexanizmlarning iqtisodiy faoliyatga ta'siri. Soliq siyosatining xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishdagi o'rni. Soliq yuki tushunchasi va uni baholash usullari. Davlat, tarmoq, korxona va soliq to'lovchi darajasidagi soliq yuki. Soliq yukining ishlab chiqarish, investitsiya, bandlik, narx va raqobatbardoshlikka ta'siri. Optimal soliq yuki va Laffer egri chizig'ining mazmuni. Soliq ma'muriyatchiligining mazmuni, maqsadi va vazifalari. Soliq to'lovchilarni hisobga olish, soliq hisobotlarini qabul qilish, soliqlarni hisoblash va undirish, soliq qarzini boshqarish hamda soliq nazoratini amalga oshirish. Soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish va raqamlashtirish. Soliq nazoratining shakllari va usullari. Kameral nazorat, sayyor soliq tekshiruvi, soliq auditori va soliq monitoringi. Soliq xavfini tahlil qilish va xavfga asoslangan nazorat tizimi. Soliq huquqbuzarliklari, moliyaviy sanksiyalar va javobgarlik choralari. Moliya va soliqlar sohasida xalqaro tashkilotlarning o'rni. Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda boshqa institutlarning davlat moliyasi va soliq siyosati bo'yicha tavsiyalari. Xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarni milliy amaliyotga tatbiq etish masalalari.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. Yusupov M.A. Xizmatlar marketingi: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 356 b.
3. Mustafoyev G'.S. Qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasi va aholi bandligi: monografiya. – Samarqand: SamISI, 2022. – 190 b.
4. Xoliqulov A.N. Xizmat ko'rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilish metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlari: monografiya. – Samarqand: STEP-SEL, 2023. – 276 b.
5. Mualliflar jamoasi. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti: o'quv qo'llanma. – Samarqand: Fan bulog'i, 2023. – 410 b.
6. Kaxarov J.A. Servis sohasi dizayni va reklamasi: o'quv qo'llanma. – Samarqand: STEP-SEL MChJ, 2024. – 268 b. ISBN 978-9910-720-38-3.
7. Suvonov Z. Aholi va turistlar ovqatlanishini tashkil etish: o'quv qo'llanma. – Samarqand: SamISI, 2024.
8. Raximov Z.O. Turizm rivojlanishida mehmonxonalar interyer-dizayni: monografiya. – Samarqand: SamISI, 2022. – 212 b.
9. Muxiddinov S.I. Samarqand tamadduni tarixi: o'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU, 2022.
10. Gulyamova G.P. va boshqalar. Turizm menejmentida tizimli tahlil va samarali qarorlar qabul qilish: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2023. – 134 b.
11. Gulyamova G.P. va boshqalar. Turizmde menejmentning zamonaviy usullari: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2023. – 216 b.
12. G'aniyev G'.A. Restoran ishi: darslik. – Toshkent: O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI NMIU, 2023. – 769 b.
13. G'aniyev G'.A., Mavlyanov M.Yu. Mehmonxona xo'jaligi iqtisodiyoti: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Usmon Nosir Media, 2024. – 559 b.
14. Vaxabov A.V., Xajiyev A.T. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyot: darslik. – Toshkent: Universitet, 2021. – 412 b.
15. Mirzayev Q.J., Boboqulov S.B., Janzakov B.Q. Raqamli iqtisodiyot: o'quv qo'llanma. – Samarqand: SamISI, STEP-SEL, 2022. – 86 b.
16. Sabirjonov R.A. va boshqalar. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning rivojlanish istiqbollari: monografiya. – Toshkent: Hilol Media, 2022. – 202 b.
17. Begalov B.A., Abdullayev M.K. Raqamli iqtisodiyot: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 352 b.
18. Ayupov R.H., Tursunov S.Q. Raqamli texnologiyalar: o'quv qo'llanma.

– Toshkent: Lesson Press, 2023. – 464 b.

19. Giyazova N.B. Raqamli iqtisodiyot: darslik. – Buxoro: Buxoro determinanti MChJ “Kamolot” nashriyoti, 2024. – 192 b.

20. Xasanov B.A., Xashimov A.A., Muxametov A.B., Abduvoxidov A.A. Buxgalteriya hisobi: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot dunyosi, 2021. – 979 b.

21. Abdusalomova N.B., Temirov F.T. Moliyaviy hisob: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 283 b.

22. Toshnazarov S.N. Moliyaviy buxgalteriya hisobi – 1: darslik. – Samarqand: STEP-SEL, 2023. – 580 b.

23. Ochilov I., To‘lakov U., Xudayqulov A. Buxgalteriya hisobi: darslik. – Toshkent: Publishing High Future, 2024. – 568 b.

24. Xasanov B.A., Xashimov A.A., Muxametov A.B., Abduvoxidov A.A. Buxgalteriya hisobi. I jild: darslik. – Sirdaryo: Ziyonashr-matbaa, 2024. – 568 b.

25. Muxametov A.B. Moliyaviy hisob: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Moliya, 2024. – 272 b.

26. Xasanov B.A., Xashimov A.A., Muxametov A.B., Abduvoxidov A.A., O‘razmatov J.M., Akramov G‘.B., Narbayeva M.A., Eshpulatov D.B. Moliya va soliqlar: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot dunyosi, 2022. – 774 b.

27. Urmonov J.J. Moliya va soliqlar: darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022.

28. Bazarov Q.T. O‘zbekistonda soliqqa tortish amaliyoti: o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: TDIU huzuridagi BIMM, 2022.

29. Jo‘rayev A.S., Safarov G‘.A., Meyliyev O.R. Soliqlar va soliqqa tortish. II qism. Soliq nazariyasi: darslik. – Toshkent: Nihol Print, 2023. – 352 b.

30. Tuxliyev B.K., Ilxamov Sh., Mirzaliyev S., Yusupov O. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish: darslik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2024. – 202 b.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA
IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100